

Date: 13<sup>th</sup>September-2025

**DILSHOD RAJABNING “TESKARI O‘QIGANDA” VA “YOZUV “YOVUZ”  
BO‘LMASIN” SHE’RLARI TAHLILI**



**Axtamova Zarina Avaz qizi**  
BuxDU adabiyotshunoslik yo‘nalishi  
1-bosqich magistranti  
[zarinaaxtamova@gmail.com](mailto:zarinaaxtamova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada serqirra ijodkor Dilshod Rajabning “Teskari o‘qiganda” va “Yozuv “yovuz” bo‘lmasin” she’rlari o‘zaro solishtirilib tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** shoir, she’r, badiiy usul, poetik jihat, qofiya, lingvistik tahlil, badiiy vositalar.

Dilshod Rajab 1964-yilning 7-dekabrida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyoli oilada tug‘ildi. Ilk she’ri “Gulxan” jurnalida 1978-yilda bosildi. “Qorqiz sovg‘a keltirdi” nomli kitobi esa hammualliflikda 1989-yilda nashr etildi. Shundan so‘ng shoirning “Otamning bog‘i” (1996), “Daryo ko‘ngil” (1997), “Jilvon o‘g‘loni”, “Alifbo”(2001) kabi bolalarga bag‘ishlangan kitoblari dunyoga keldi.<sup>3</sup> Shoirning she’rlari, asosan, Vatan, tabiat, yaxshilik va yomonlik, insoniylik, beg‘ubor bolalik kabi mavzularga bag‘ishlanib yozilgan.

Xayrli tong! Yo‘lingiz  
Oydin-u ravon bo‘lsin.  
Har bir kun quyosh sari  
Eltuvchi dovon bo‘lsin!<sup>4</sup>

So‘zlarning o‘ynoqiligi, ohangdorligi, mavzuning dolzarb va qiziqarliligi jihatdan shoir ijodi alohida ajralib turadi. Dilshod Rajab dunyoga bola nigohi bilan boqadi, go‘zallikni his qilib, samimiy tuyg‘ularni qalamga oladi. Quyida shoirning “Teskari o‘qiganda” va “Yozuv “yovuz” bo‘lmasin” kabi she’rlari ham chiroyli o‘xshatishlar, so‘z o‘yini va didaktik ahamiyatga egaligi bilan e’tiborimizni tortdi.

“Teskari o‘qiganda” she’ri poetik jihatdan juda qiziqarli she’r. Hajman ixcham, hajviy-falsafiy ruhdagi she’rlar turkumiga yaqin. Unda bolalarcha sodda, lekin badiiy jihatdan o‘ta murakkab o‘yinli uslub mavjud. She’r ajoyib, unda tildagi muayyan qonuniyatlar falsafiy tarzda tushintirib berilgan:

“Qo‘y” ni ters o‘qisang,  
“Yo‘q” bo‘lib qolar.  
“Zog” birdan “g‘oz” bo‘lib,  
G‘o‘ddayib olar.  
“Kit” esa “tik” holda

<sup>3</sup> S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari”. Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016-yil.

<sup>4</sup> Dilshod Rajab. “Xayrli tong”. “Muxarrir” nashriyoti, 2019. – 192 b.

Date: 13<sup>th</sup>September-2025

Suzadi sekin.

“Kiyik” va “kuchuk” chi,

O‘zgarmas lekin.

Qay yondan o‘qisang

Bir xil “quduq” ham.

Qizig‘-a, o‘zgarmas,

O‘zi “qiziq” ham.<sup>5</sup>

Qo‘y – yo‘q, ya’ni ma’nosi butunlay teskariga o‘zgaradi.

Zog‘ – g‘oz, bu yerda esa qush nomlari o‘zaro almashadi.

Kit – tik, bunda esa semantik jihatdan bog‘liq so‘zlar hosil bo‘ladi. “Kiyik”, “kuchuk”, “quduq” va “qiziq” so‘zлari o‘zgarmaydi, bu esa teskari o‘qishda ham bir xil talaffuzni saqlab qoladigan so‘zlarning mavjudligiga ishora. Fanda bunday so‘zlar polindrom so‘zlar deb ataladi. Bunday uslub lingvistik eksperiment sifatida she’rni yanada qiziqarli qiladi va o‘quvchida til tuzilishi haqida mulohaza yuritish ehtiyojini uyg‘otadi. She’r o‘zining ohangdorligi bilan ajralib turadi. Qofiya tizimi aniq va silliq: qolar, olar, sekin, lekin, quduq, qiziq. Qofiyalar she’rning musiqiyligini ta’minlaydi. Shu bilan birga she’rda ritmik uyg‘unlikni saqlaydi. She’rda “ham” bog‘lovchisi radif bo‘lib kelgan. She’rda muallif so‘zlarning shakl va ma’nosiga ko‘ra o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligi orqali tilda yashiringan sirlarni, hatto ba’zi hayotiy haqiqatlarni ham ochib bergen.

“Qo‘y” ni ters o‘qisang,

“Yo‘q” bo‘lib qolar.

Bu satrlar ma’no jihatdan mavjudlik va yo‘qlikning qarama-qarshiligin anglatadi.

“Zog” birdan “g‘oz” bo‘lib,

G‘o‘ddayib olar.

Bilamizki, zog‘ va g‘oz aslida qushlarning nomi. Misrada shunchaki, so‘z o‘zgarishi haqida emas, balki o‘zining mohiyatini anglamagan, lekin kattaroq va muhimroq ko‘rinishga intilayotgan shaxslar timsolini ham ko‘rish mumkin. Mazmunni yaqqol ochib berish uchun “g‘o‘ddaymoq” so‘ziga e’tibor qarataylik:

G‘o‘ddaymoq bu – egilmay, tik bo‘lib turmoq, qaqqaymoq. O‘zini kibr-havoli tutmoq, kekkaymoq degan ma’nolarni anglatadi.<sup>6</sup>

Xalqimizda: “Qarg‘a g‘oz yurish qilaman deb, puti yirtilibdi”, -degan maqol bor. Ushbu maqol ham misralar mazmunini ochishga yaqqol yordam beradi. Inson kamtarin bo‘lishi, hech qachon o‘zini birovga qiyoslab ish tutishi kerak emasligini shoir chiroyli tarzda yoritib bergen.

“Kit” esa “tik” holda

Suzadi sekin.

Biz kitlarni ko‘rganmiz, ular haqida ma’lumotga egamiz. Kit gorizontal, ya’ni yotiқ holatda suzadi. U doimiy harakatda. Kitning tik holda suzishi mantiqiy jihatdan biroz g‘aliz, lekin bu orqali shoir o‘z mehnati va halolligi bilan yashayotgan odamlar qaddi hech

<sup>5</sup> Dilshod Rajab “Baxshi bola – yaxshi bola”. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016. – 144 b.

<sup>6</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий енциклопедияси. 2006. – 680 б

Date: 13<sup>th</sup>September-2025

qachon bukilmasligini uqtirgandek go‘yo. Yoki, kit sekin suzishiga tik bo‘lib qolgani sabab qilinadi.

“Kiyik” va “kuchuk” chi,

O‘zgarmas lekin.

Qay yondan o‘qisang

Bir xil “quduq” ham.

Ushbu satrlarda kiyik, kuchuk, quduq so‘zlari qay tomondan o‘qilsa ham bir xil ma’noni bildiradi. Bu esa hayotdagи ba’zi haqiqatlarning doimiy va o‘zgarmasligini ifodalaydi.

Qizig‘-a, o‘zgarmas,

O‘zi “qiziq” ham.

She’rning oxirgi misralaridagi “o‘zi qiziq ham” degan jumla til imkoniyatlarining kengligi, so‘z o‘yinlarining o‘ziga xosligini ta’kidlaydi va o‘quvchini fikrlashga chorlaydi.

“Teskari o‘qiganda” she’ri o‘zbek tilining qanchalar so‘zga boyligi, o‘ynoqiligini isbotlab bergan. U tilning tabiatи, haqiqatning ko‘p qirraliligi va inson tafakkurining naqadar kengligini, o‘ziga xosligini aks ettirgan. She’r qisqa bo‘lsada, badiiy vositalar va semantik qatlamlari jihatdan juda boy. She’rda tashbeh, tazod kabi badiiy san’atlardan ustalik bilan foydalanilgan. Bunday she’rlar adabiyotda nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki til va tafakkur ustida o‘ylashga ham undaydi.

“Yozuv “yovuz” bo‘lmasin” she’rida yosh kitobxon bir harfni almashtirish bilan yangi so‘z paydo bo‘lishining o‘ziga xosliklarini anglab yetadi:

“Q” o‘rniga “f” yozsang,

“Qil”dan “fil” paydo bo‘lar.

“Gado”ning boshin olsang,

Albatta, “ado” bo‘lar.

“Bulbul”ni “G‘ulg‘ul” dema,

“B” o‘rnin „g“ olmasin.

„Z“ o‘rniga „r“ yozma,

„Ko‘z“, „ko‘r“ bo‘lib qolmasin.

„S“ni „l“ga almashib,

Tiniq “soy”ni “loy” qilma.

Harflarni chalkashtirib,

Gapni poyma-poy qilma.<sup>7</sup>

Bu she’r yosh kitobxonga pand-nasihat tarzida bo‘lib, “k” o‘rniga “f” yozsang, “qil”dan “fil” paydo bo‘ladi deyish bilan “qil”ning kichikligi “fil”ning ulkanligiga qarama-qarshi qo‘yiladi (aslida bu vahimachi odamlarga nisbatan ishlatiladigan “pashshadan fil yasamoq” iborasining o‘ziga xos shakli); “gado”ning boshi(ya’ni bosh harfi)ni olsang, “ado” bo‘ladi (ya’ni o‘ladi); “b” o‘rnini “g” olsa, “Bulbul” “G‘ulg‘ul”ga (kurka doim “g‘ul-g‘ul” deb yurgani uchun xalq orasida shunday ataladi) anglanadi, ya’ni yoqimli sayrashi bilan ko‘ngilga zavq bag‘ishlaydigan qush doim tumshug‘ini osiltirib yuradigan

<sup>7</sup> Dilshod Rajab “Baxshi bola – yaxshi bola”. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016. – 144 b.

Date: 13<sup>th</sup>September-2025

serzarda parrandaga aylanadi; “z” o‘rniga “r” yozsang, “ko‘z” “ko‘r” bo‘lib qoladi; “s”ni “l”ga almashtirsang, tiniq “soy” “loy”ga aylanadi.<sup>8</sup>

Bulardan kelib chiqadigan xulosa, yosh kitobxonga pand-nasihat ham o‘ziga xos: harflarni chalkashtirib, gapni poyma-poy qilsang, kulgiga qolishing mumkin. Maktabda o‘qituvchi, uyda ota-onal bolaga to‘g‘ri yoz, xatо qilma deb tanbeh berishlari mumkin, lekin uning natijasi ko‘ngildagiday bo‘lavermaydi. She’r esa bir harfni noto‘g‘ri qo‘llash oqibati ham naqadar xunuk bo‘lishi mumkinligi xarakterli misollar bilan, avval kulib, so‘ngra o‘ylab ko‘rishga da’vat qilishi nuqtai nazaridan o‘quvchiga yorqin ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi. She’r o‘ziga hos, tazod va o‘xshatishlardan ustalik bilan foydalanilgan. Oson o‘qilishi tufayli xotirada tez qoladi. She’rxonni mushohadaga, ona tilimizga bo‘lgan e’tiborga undaydi.

Hayot – yosh bola uchun, muayyan ma’noda o‘yindan iborat. Erishilayotgan har bir narsaga o‘yin vositasida erishish bola uchun qulay va osondir. Bu tabiiy hol, u hatto so‘z yasashda ham o‘yin elementidan foydalanishni ma’qul ko‘radi. Dilshod Rajabning biz tahlil qilgan ikki she’ri ham bolalar uchun so‘z o‘yini tarzida qalamga olingan. Shuning uchun ham, ushbu she’rlar bir nafasda o‘qiladi va tushunarli bo‘la oladi.

Dilshod Rajab she’rlari bolajonlar uchun ham, kattalar uchun ham birdek qiziqarli. Shu boisdan ham ular bugungi kun avlodining ma’naviyati, kamolotini oshirishga birdek xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dilshod Rajab. “Xayrli tong”. “Muxarrir” nashriyoti, 2019. – 192 b.
2. Dilshod Rajab “Baxshi bola – yaxshi bola”. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016. – 144 b
3. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari”. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. Бадиий тасвир маҳорати: Р. Баракаев, Э. Очилов. - Тошкент: Muharrir nashriyoti 2021. – 48 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий енциклопедияси. 2006. – 680 б

<sup>8</sup> Бадиий тасвир маҳорати: Р. Баракаев, Э. Очилов. - Тошкент: Muharrir nashriyoti 2021. – 48 б.